

## ZAMONAVIY TALABALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK DUNYOQARASHLARI

**Sultonov Smoiljon Qodirjono'g'li**

*Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2-bosqich  
magistratura talabasi Andijon viloyati Jalaquduq tumani*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada hozirgi kunda talaba-yoshlar ongida ijtimoiy voqelikka nisbatan ongli munosabat madaniyatini shakllantirish borasi amalga oshirilayotga ishlar va ularning amaliy natijalari sarhisob qilingan. Mazkur sohaning rivoji uchun qanday usul va metodlardan foydalanish kerakligi tushuntirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy tuzilma, ijtimoiy himoya, ijtimoiy faollik, tendensiya, fuqarolik pozitsiyasi*

**Абстрактный.** *В данной статье обобщены текущие мероприятия и их практические результаты по формированию культуры осознанного отношения к социальной действительности в сознании студентов и молодежи. Объясняется, какие методы и способы следует использовать для разработки этого направления.*

**Ключевые слова:** *социальная структура, социальная защита, социальная активность, тенденция, гражданская позиция.*

**Abstract.** *This article summarizes the current activities and their practical results in the formation of a culture of conscious attitude towards social reality in the minds of students and young people. It is explained what methods and methods should be used for the development of this field.*

**Key words:** *social structure, social protection, social activity, tendency, civic position*

### KIRISH

Yoshlarning ijtimoiy hayotda faolligi jamiyatning boshqa qatlamlarining ijtimoiy faolligidan alohida xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu eng avvalo, yoshlarning jamiyatda tutgan o'rnining to'liq shakllanmaganligi bilan bogliq. Yoshlar ijtimoiy tuzilmalarga jalb etilish, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonini boshdan o'tkazadilar. Ijtimoiy hayotning har bir soxasida yoshlarning ijtimoiy faolligi alohida xususiyatga ega. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, uni bir necha yo'nalishlarda: iqtisodiy ta'limot, ijtimoiy himoya, ma'naviy-axloqiy turmush tarsi soxalarida o'rganish kerak. Ijtimoiy faollik deyilganda inson qaysi kasbning mutaxassisi bo'lishidan, qanday lavozimni bajarishidan qat'iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo'shishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga bo'lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o'zini inson sifatida namoyon qiladi. Yoshlar faoliyati deyilganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lish xususiyatlari tushuniladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Yoshlar faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog'liq

bo'lgan va qadriyatlarining nomoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati belgisining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatlardagi ehtiyojlarini qondirish yo'li va sifat ko'rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va tor ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning manashunday darajada o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

### **TADQIQOT METODLARI VA METODOLOGIYASI**

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar va islohotlar jarayoni fuqarolik jamiyati institutlari deb ta'riflanadigan nodavlat-notijorat tashkilotlari, qolaversa, jamoat birlashmalaridan ham ijtimoiy jihatdan faollikni talab etmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi, ijtimoiy faollik o'zi nima? Bugun yurtdoshlarimizning ijtimoiy hayotda faollashayotganini guvohi bo'lib turibmiz. Ijtimoiy jihatdan tushkunlik, o'zgarishlarga, islohotlarga loqaydlik davri tugadi, yurtdoshlarimiz harakatlarida tashabbusni, yangilikka bo'lgan intilishlarni ko'rishimiz mumkin. "Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy faollikni kuchaytirib yubordi", degan mazmundagi fikrlarni ham mavjud. Lekin ijtimoiy faollik va ijtimoiy tarmoqlardagi faollik o'rtasida juda katta farq bor. Ijtimoiy tarmoqlardan o'zining subyektiv fikrlarini ulashib, jamiyatda kechayotgan voqea-hodisalarga faqat salbiy munosabat bildirib o'tirish, bu ijtimoiy faollikbo'la olmaydi. Har qanday ijtimoiy hodisaga albatta nimadir sabab bo'ladi, nimadir turtki beradi. Ijtimoiy faollik ham o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayon emasligi barchamizga ma'lum. Mustaqil mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatorida ko'rish har birimizning orzuyimiz. Lekin bu orzu kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Yurtdoshlarimiz ko'nglidagi manashu istakning yanada ortib, yangi O'zbekistonni barpo etishga bo'lgan ishtiyoqning kuchayishiga, ta'kidlab o'tganimizdek – ijtimoiy faollikning ortib borishiga, shubhasiz, muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich boshlab bergan shiddatli demokratik islohotlar turtki bermoqda.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Bugun O'zbekiston davlati milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari ildam qadam tashladi. Taraqqiyot va farovonlikka qaratilgan islohotlarning samarali tarzda amalga oshirilishinibarcha o'zbek xalqi xohlaydi. Sababi shuki, bu kabi islohotlar natijasida xalq farovon yashaydi. Yurtimizda bo'layotga islohotlarga, o'zgarishlarga daxldorlik hissi insonni ijtimoiy faol bo'lishga chorlaydi. Kelajak bugundan boshlanadi. Yurtimizda yoshlarningilm o'rganishlari, har jihatdan barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu maqolamizda nazariy jihatdan egallangan bilimlarni amaliyotga tadbiq etish natijasida shakllanadigan faollik haqida fikr-mulohaza yuritishni o'z oldimizga asosiy maqsad qilib qo'ydik. Ijtimoiy faollik albatta shaxs faoliyatining muhim jihatlaridan biridir. U shaxsning jamiyat ishlaridagi ishtirokida namoyon bo'ladi va ma'lum darajada siyosiy va axloqiy o'zlikni anglashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish – bu nafaqat jamoat ishlarida faol bo'lish darajasiningortishi, balki yoshlarning axloqiy yo'nalganligini aniqlovchi motivlarning rivojlanishi hamdir. Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqaroviylik va fuqaroviy ongni o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini qurishda shaxs faolligini

o'rganishdan iborat. Zero, fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki jamiyatning barcha jabhalarida faol bo'lgan shaxslar bilan birgalikda barpo etiladi. Mana shu faollik darajasini keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egadir. Zero, ular fuqarolik jamiyatini qurishning umumiy va xususiy ahamiyati va qoidalarini ongli ravishda anglash imkonini beradi. Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy faoliyat va qolaversa, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik holati hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlarini va mavjud bo'lgan muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Demak, biz yoshlarimizda fuqaroviy ongning shakllantirishimiz eng asosiy vazifadir. Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga, umumiy manfaatlar yo'lida insonlar o'rtasida kelishuv bo'lishiga xizmat qiladi. Jamiyatimizda ro'y beradigan turli xil ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida fuqaroviy ong o'zgarib boradi va fuqaroviylik to'g'risidagi g'oyalar taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

### **MUHOKAMA**

Yoshlarni fuqaroviy ongi qanchalik rivojlangan bo'lsa ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi ham shunchalik yuksaladi. Aynan manashu fuqaroviy faollikning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi;

- faol fuqaro guruhiga mansub bo'lgan kishilar asosan siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan fuqarolardan iborat;
- faol fuqarolarda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat yetarli;
- faol fuqarolarda mana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi.

Ijtimoiylashuv jarayonida - ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va oshirib boorish talabalarda ma'lum omillarning ahamiyati haqida turli xil milliy g'oyalar paydo bo'ladi. Markaziy shakllanishlardan biri bo'lgan insoniylik yo'nalishlari insonning atrofdagi voqelikka nisbatan ongli munosabatini ifodalaydi va uning xatti-harakatlarining motivatsiyasini belgilaydi, faoliyatning barcha jabhalariga sezilarli ta'sir etadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, muayyan faoliyatni doimiy ravishda tashkil etish shaxsda ma'lum ko'nikmalarni hosil qilishga asos bo'ladi. Ko'nikmalar esa hayotiy faoliyatni izchil davom ettirish jarayonida malakalarga aylanib boradi. Shakllangan malaka esa shaxs tomonidan faoliyatning tezkor, sifatli va samarali kechishini ta'minlaydi. Shaxs faoliyatda samaradorlikka erishish insoniyatni qay darajada qiziqtirib kelgan bo'lsa, uni tashkil etayotgan shaxsning kasbiy jihatdan shakllangan malakaga ega bo'lishi ham shunday dolzarblik kasb etgan. Kasbiy malakaga ega bo'lish ijtimoiy, qolaversa, shaxsiy ahamiyatga ham egadir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

2. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.

3. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.

Toxir, T., Arabboy, Y., Zuxriddin, G., & Abdurauf, G. (2022). Theoretical And Practical Pedagogical Bases of Formation of Professional Culture of Students of Military Education. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2, 19-20.

Abdugafurovich, T. T. (2021). The importance of pedagogical ideas in the formation of youth. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1066-1069.

Tahirjon, T. (2022). THE CONCEPT OF SPIRITUALITY AND PATRIOTISM IN THE MIND OF STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 299-304.

Abdugafurovich, T. T. (2022). ЁШЛАРДА СОҒЛОМ МАФКУРА ВА БАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 846-849.

Abdugafurovich, T. T., & Shokhmukhammad, M. (2021). THE ROLE OF EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(9), 126-130.

Тургунбаев, Т. А., & Каримов, Ў. У. (2020). ҲАММА НАРСА-ФРОНТ УЧУН, ҲАММА НАРСА-ҒАЛАБА УЧУН! (ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДА ҚОЗОНИЛГАН ҒАЛАБАНИНГ 75 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНАДИ). Интернаука, (19-4), 52-53.